



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
“YANGI O‘ZBEKISTON” UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG‘I**

5 aprel 2023 yil.

21/8-son

**“Yangi O‘zbekiston” universitetiga talabalar o‘qishini ko‘chirishni tartibga
solisth to‘g‘risida**

“Yangi O‘zbekiston” universitetida ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish, jumladan, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga o‘qishlarini ko‘chirish uchun imkoniyat yaratish orqali ta’lim olish jarayonlariga iqtidorli yoshlarni jalg qilish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. “Yangi O‘zbekiston” universitetiga talabalar o‘qishini ko‘chirish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Yangi O‘zbekiston” universiteti rektorining 2022-yil 30-dekabrdagi 87-sonli buyrug‘i bilan tashkil etilgan Talabalarni qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha qabul komissiyasi (B. Axmedov) o‘qishni ko‘chirish jarayonini ushbu buyruq talablari asosida shaffof va adolatli tashkil etsin.

3. Ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar va marketing bo‘limi (S. Sodiqov) O‘quv bo‘limi bilan birgalikda talabalar o‘qishini ko‘chirish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablarini jamoatchilik orasida, shuningdek, Universitetning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali keng yoritib borsin.

4. O‘quv bo‘limi (F. Nizamova) o‘qishni ko‘chirish uchun arizalar qabul qilish muddatidan **5 ish kuni** avval yo‘nalishlar kesimida o‘qishni ko‘chirish uchun mavjud kvotani tasdiqlash choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish o‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor v.b. B. Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

**Innovatsiya va tadqiqot
ishlari bo‘yicha prorektor**



B. Yuldashev

“Yangi O‘zbekiston” universiteti
rektorining 2023-yil 5-apreldagi
21/8-son buyrug‘iga

ILOVA

“Yangi O‘zbekiston” universitetiga talabgorlar o‘qishini ko‘chirish tartibi to‘g‘risidagi

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston” universitetini tashkil etish to‘g‘risida” 2021-yil 23-iyundagi PQ-5158-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, “Yangi O‘zbekiston” universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet)ga talabgorlar o‘qishini ko‘chirish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

talabgor – Universitetga o‘qishni ko‘chirish istagida bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi rezidenti va nerezidenti;

o‘qishni ko‘chirish parametrlari – yangi navbatdagi semestrga mo‘ljallangan, ta’lim yo‘nalishlari va o‘quv bosqichlari kesimida o‘qishni ko‘chirish mumkin bo‘lgan talabgorlar sonini nazarda tutgan holda belgilangan tartibda tasdiqlanadigan hujjat;

minimum talablar – mazkur Nizom talablariga muvofiq, talabgor o‘qishni ko‘chirishga davogarlik qilishi uchun unga qo‘yiladigan minimal talablar;

mos ta’lim yo‘nalishi – boshqa oliy ta’lim muassasasidan o‘qishni ko‘chirishda talabgor o‘qiyotgan ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi)ning nomlanishi Universitetning ko‘chirish so‘ralgan ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi) nomlanish bilan bir xil bo‘lishi;

turdosh ta’lim yo‘nalishi – ta’lim yo‘nalish (mutaxassislik)lar nomlanishi bir xil bo‘lmagan, biroq ta’lim dasturi o‘xshash bo‘lgan yo‘nalish;

elektron platforma – Universitet tomonidan foydalanib kelinayotgan “Classe365” xorijiy tashkilotining talabgorlar axborot va ta’limni boshqarish tizimi dasturiy ta’mnoti (“Student Information System & Learning Management System Software”). Bunda Universitet tomonidan o‘quv jarayonlarini boshqarish uchun boshqa xorijiy tashkilotning dasturiy ta’mnoti tanlangan taqdirda ushbu tashkilot tomonidan taqdim etilgan dasturiy ta’mnot elektron platforma sifatida foydalaniadi.

3. O‘qishni ko‘chirish Universitet rektorining tegishli buyrug‘i bilan tashkil etilgan Talabgorlarni qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha qabul komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Qabul komissiya) tavsiyasi asosida Universitet rektorining tegishli buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Bunda, rektor buyrug‘i yuzasidan appellatsiya shikoyati kiritish taqiqlanadi.

4. O‘qishni ko‘chirish jarayonlarini olib borish Universitet rektorining tegishli buyrug‘i bilan tashkil etilgan Talabgorlarni qabul qilish jarayonlarini olib borish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruh) tomonidan amalga oshiriladi.

5. O‘qishini ko‘chirish 1-ilovaga muvofiq Talabalarning o‘qishini ko‘chirish sxemasi asosida amalga oshiriladi.

2-bob. Ariza taqdim etish, ko‘rib chiqish va qabul qilish

6. O‘qishni ko‘chirish bo‘yicha arizalar:

kuzgi semestr uchun – 15-iyuldan 30-iyul sanasiga qadar;

qishki semestr uchun – kuzgi semestr davrining oxirgi 15 kuni mobaynida qabul qilinadi.

Bunda, o‘qishni ko‘chirish bo‘yicha arizalarni qabul qilish yakunlanganidan so‘ng, kelib tushgan arizalar, keyingi semestrga qabul qilish uchun ko‘rib chiqishga yo‘naltiriladi.

7. Qabul komissiyasi tomonidan o‘qishni ko‘chirish bo‘yicha arizalarni qabul qilish muddatlariga o‘zgartirish kiritilishiga yo‘l qo‘yiladi.

8. Talabgor arizasi elektron platforma orqali so‘ralgan ma’lumotlarni kiritish hamda quyidagi hujjatlarni elektron tazrda (onlayn) taqdim etish ko‘rinishida qabul qilinadi:

pasport yoki ID karta;

reyting daftarcha yoki belgilangan shakldagi akademik ma’lumotnomalar (transkript) nusxalari;

talabgorning umumiy o‘rta va o‘rta-maxsus, professional ta’lim muassasasini tugatganligini tasdiqllovchi hujjat (attestat yoki diplom);

3,5sm x 4,5sm hajmdagi surat (PNG, GIF, JPEG, JPG formatlaridagi, rangli, 1 MBdan oshmagan hajmdagi, oxirgi 3 oy ichida suratga olingan, neytral yuz ifodasi hamda ko‘zlar ochiq holda yelkalar va yuz ifodasi ko‘ringan suratlarga qabul qilinadi);

mazkur Nizomning 2-ilovasida qayd etilgan “IELTS” sertifikati yoki unga muqobil bo‘lgan ingliz tilini bilish darajasini tasdiqllovchi hujjatlardan biri;

ta’lim jarayonida erishgan natijalari, jumladan diplom, sertifikat va h.k.;

o‘qishni ko‘chirish sabablari izohlangan motivatsion xat.

Bunda, mazkur hujjatlarning haqiqiyligi yuzasidan javobgarlik talabgorning zimmasiga yuklatiladi va talabagor tomonidan yolg‘on ma’lumot yoki qalbaki hujjat taqdim etish holati aniqlangan taqdirda talabgorning o‘qishini ko‘chirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

9. Talabgor arizasini ko‘rib chiqish quyidagi 3 (uch) bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich – talabgor minimum talablarga javob berishini tekshirish;

ikkinchi bosqich – suhbat o‘tkazish;

uchinchi bosqich – belgilangan mezonlarga muvofiq balli tizim asosida baholash.

10. Birinchi bosqich Ishchi guruh tomonidan ariza kelib tushganidan boshlab 3 (uch) ish kuni davomida amalga oshiriladi.

11. Ishchi guruh birinchi bosqich natijasiga ko‘ra, agar talabgor mazkur Nizom bilan belgilangan minimum talablarga javob bersa hamda o‘qishni ko‘chirish parametrlari bo‘yicha bo‘sh o‘rin mavjud bo‘lsa, u holda uni O‘qishni ko‘chirishga nomzodlar ro‘yxatiga kiritadi, aks holda rad javobini beradi.

12. Rad javobi berilganda, Ishchi guruh talabgorga rad etishning sabablari, jumladan u to‘g‘ri kelmagan minimum talablarni aniq ko‘rsatishi shart.

13. O‘qishni ko‘chirish bo‘yicha arizalarni qabul qilish muddati yakunlanganidan so‘ng, Ishchi guruh 1 (bir) ish kuni mobaynida arizalarni ko‘rib chiqishning birinchi bosqich natijasi asosida O‘qishni ko‘chirishga nomzodlar ro‘yxatini shakllantiradi.

14. Ikkinci bosqich Qabul komissiyasi tomonidan Ishchi guruh shakllantirgan O‘qishni ko‘chirishga nomzodlar ro‘yxati asosida unda ko‘rsatilgan talabgorlar bilan suhbat o‘tkazish ko‘rinishida tashkil etiladi hamda bu haqida talabgorning elektron pochta manziliga xabar yuboriladi.

Bunda, suhbat o‘tkazish sanasi talabgorning asoslantirilgan murojaati asosida Ishchi guruh tomonidan o‘zgartirilishi mumkin hisoblanadi.

15. Qabul komissiyasi tomonidan o‘tkaziladigan suhbat jarayonida qo‘srimcha ravishda Yoshlar masalalari va man‘aviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor, tegishliligi bo‘yicha fakultet dekani hamda mazkur fakultet departamenti boshlig‘i ishtirok etishi lozim hisoblanadi.

Suhbat jarayonida yuqorida qayd etilgan xodimlarning ishtirokini ta’minlashning imkonи bo‘lmagan taqdirda suhbat ularning ishtirokisiz o‘tkazilishi mumkin hisoblanadi.

16. Ikkinchi bosqich bo'yicha suhbatlar Qabul komissiyasi yig'ilishi doirasida bo'lib o'tadi hamda O'qishni ko'chirishga nomzodlar ro'yxati shakllantirilganidan so'ng 10 (o'n) ish kuni mobaynida tashkil etiladi.

17. Qabul komissiyasi ikkinchi bosqich bo'yicha suhbatlarda talabgorlarning quyidagi ko'nikmalarini inobatga olgan holda baholaydi:

- ta'lif yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha bilimi;
- odob va axloqi;
- muloqot ko'nikmasi;
- faolligi, jumladan volontyorlik harakati va boshqalar;
- o'qishni ko'chirish sabablari izohlangan motivatsion xati sifati.

Bunda, Qabul komissiyasi har bir talabgorga mazkur Nizomning 30-bandii talablari asosida tegishli baho beradi.

18. Belgilangan suhbatlar o'tkazilganidan so'ng, ariza ko'rib chiqishning uchinchi bosqichi Ishchi guruh tomonidan 4 (to'rt) ish kuni mobaynida amalga oshiriladi. Bunda, talabgorlar belgilangan mezonlarga muvofiq balli tizim asosida baholanib, talabgorlar reytingi shakllantiriladi.

19. Talabgorlar reytingida 11 balldan past to'plagan nomzodlar o'qishni ko'chirishga tavsiya etilmaydi.

20. Talabgorlar reytingida belgilangan mezonlarga muvofiq balli tizim asosida o'qishni ko'chirishga tavsiya etilgan nomzodlar alohida qayd etilishi lozim.

21. O'qishni ko'chirishga tavsiya etilgan talabgorlar soni o'qishni ko'chirish parametrlaridan ko'p bo'lgan taqdirda, Talabgorlar reytingida talabgorlar yuqoridan pastga tamoyili asosida quyidagi 2 (ikki) guruhga ajratiladi:

- parametr doirasidagi o'qishni ko'chirishga tavsiya etilgan talabgorlar;
- kutish rejimidagi o'qishni ko'chirishga tavsiya etilgan talabgorlar.

22. Parametr doirasida o'qishni ko'chirishga tavsiya etilgan talabgorlarga Ishchi guruh tomonidan 2 (ikki) ish kuni davomida shartli oferta yuboriladi.

23. Parametr doirasida o'qishni ko'chirishga tavsiya etilgan talabgor shartli ofertani olganidan so'ng 10 (o'n) ish kuni muddatida belgilangan tartibda tegishli ta'lif yo'nalishi uchun belgilangan to'lov-kontrakt summasining 25 foizini to'lashi lozim. Mazkur miqdor parametr doirasida o'qishni ko'chirishga tavsiya etilgan talabgorlarning soni va murojaatlaridan kelib chiqib, Qabul komissiyasi qarori asosida o'zgartirilishi mumkin.

24. Parametr doirasida o'qishni ko'chirishga tavsiya etilgan talabgor belgilangan tartibda to'lovlanri amalga oshirmagan yoki o'z xohishiga ko'ra o'qishni ko'chirishni rad etgan taqdirda, u parametr doirasida o'qishni ko'chirishga

tavsiya etilgan talabgorlar ro‘yxatidan chiqarilib, uning o‘rniga keyingi o‘rindagi kutish rejimidagi talabgor kiritiladi.

25. Ishchi guruh muntazam ravishda parametr doirasida o‘qishni ko‘chirishga tavsiya etilgan talabgorlar ro‘yxatini yangilab boradi, xususan belgilangan amallarni bajarmagan parametr doirasida o‘qishni ko‘chirishga tavsiya etilgan talabgorni ro‘yxatdan chiqarib, uning o‘rniga ketma-ketlik asosida kutish rejimidagi o‘qishni ko‘chirishga tavsiya etilgan talabgorni kiritib boradi.

Bunda, Ishchi guruh kutish rejimidan o‘qishni ko‘chirishga tavsiya etilgan talabgorga belgilangan tartibda xabar yuboradi.

26. Ishchi guruh kutish rejimidan parametr doirasida o‘qishni ko‘chirishga tavsiya etilgan talabgorlar ro‘yxatiga kiritilgan nomzodga o‘sha kunning o‘zida uning elektron manzili orqali shartli ofertani yuboradi. Bunda, ushbu nomzodga belgilangan to‘lov-kontrakt summasining 25 foizini to‘lash uchun axborot yuborilgan kundan e’tiboran 4 (to‘rt) ish kun muddat beriladi.

27. O‘qishni ko‘chirishga tavsiya etilgan talabgor belgilangan tartibda to‘lov-kontrakt summasini to‘laganidan so‘ng, Ishchi guruh so‘roviga asosan, biroq yangi semestr boshlanishidan 5 (besh) ish kun avvalgacha bo‘lgan muddatda tegishli hujjatlarning asl nusxasini Universitetga taqdim etishi lozim.

28. O‘qishni ko‘chirishga talabgorlarni qabul qilish ko‘pi bilan yangi semestr boshlanishidan 3 (uch) kun avvalgacha bo‘lgan muddatda to‘xtatiladi. Bunda, Qabul komissiyasi tomonidan o‘qishni ko‘chirish bo‘yicha Universitet rektori buyrug‘i lohiyasi imzolash uchun belgilangan tartibda kiritilishi lozim.

3-bob. O‘qishni ko‘chirish mezonlari

29. Talabgor o‘qishni ko‘chirishga davogarlik qilishi uchun quyidagi minimum talablarga javob berishi lozim:

talabgorlar bakalavr darajasida ta’lim olayotgan bo‘lishi;

kamida ta’lim olayotgan oliy ta’lim muassasasining 1-o‘quv yilining 1-semesterini tamomlagan bo‘lishi;

o‘qishni ko‘chirish istagini bildirgan yo‘nalishida mavjud ta’lim shaklidan o‘zga (boshqa) ta’lim shaklida o‘qimagan bo‘lishi;

umumiyo‘rta va o‘rta-maxsus professional ta’lim muassasalarini tamomlagan bo‘lishi;

ingliz tilini “upper-intermediate” darajasida bilishi;

o‘zlashtirish ko‘rsatkichi umumiyo‘rta-maxsus professional ta’lim muassasalarini tamomlagan bo‘lishi;

akademik qarzdorliklari mavjud bo‘lmagligi;

o‘qishni ko‘chirish so‘ralgan Universitetning ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi) mos yoki turdosh ta’lim yo‘nalishi bo‘lishi;

o‘quv rejalaridagi umumkasbiy va ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bo‘yicha farq ko‘pi bilan 30 foizni tashkil etishi;

mazkur Nizomga ko‘ra Universitetga taqdim etish so‘ralgan ma’lumot va hujjatlarni belgilangan muddatlarda taqdim etgan bo‘lishi.

30. Ball tizimida quyidagi mezonlar asosida olib boriladi:

a) ingliz tilini bilish darajasi bo‘yicha:

5,5 – 6,0 ballik “IELTS” yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatiga ega bo‘lish – 3 ball;

6,5 – 8,0 ballik “IELTS” yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatiga ega bo‘lish – 4 ball;

8,0 balldan yuqori bo‘lgan “IELTS” yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatiga ega bo‘lish – 5 ball. Bunda, “IELTS” xalqaro sertifikatiga markur Nizomning 2-ilovasida qayd etilgan boshqa sertifikat va diplomlar tenglashtiriladi;

b) xalqaro SAT sertifikatining matematika natijasi bo‘yicha:

520 – 610 ballik “SAT” tashkil etishi – 3 ball;

620 – 710 ballik “SAT” tashkil etishi – 4 ball;

720 – 800 ballik “SAT” tashkil etishi – 5 ball. Bunda, sertifikat olinganiga besh yildan oshmagan bo‘lishi lozim;

v) xalqaro “A-level” sertifikati matematika natijasi bo‘yicha:

“E” va “D” level ko‘rsatkichini tashkil etishi – 3 ball;

“B” va “C” level ko‘rsatkichini tashkil etishi – 4 ball;

“A” va “A*” level ko‘rsatkichini tashkil etishi – 5 ball. Bunda, sertifikat olinganiga besh yildan oshmagan bo‘lishi lozim;

g) talabgorning ta’lim olayotgan oliy ta’lim muassasasidagi o‘rtacha o‘zlashtirish reytingi bo‘yicha:

“a’lo” ko‘satkich – 5 ball;

“o‘rta” ko‘rsatkich – 4 ball;

“qoniqarli” ko‘rstakich – 3 ball;

d) o‘quv rejalaridagi umumkasbiy va ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bo‘yicha farq bo‘yicha:

25 – 30 foizni tashkil etishi – 3 ball;

15 – 24 foizni tashkil etishi – 4 ball;

0 – 14 foizni tashkil etishi – 5 ball;

e) Qabul komissiyasi bahosi bo‘yicha. Bunda, Qabul komissiyasi mazkur Nizom talablari asosida talabgor bilan o‘tkazgan suhbatga ko‘ra, ushbu talabgorni har bir ko‘nikmasi bo‘yicha 0 – 5 ballgacha baholaydi.

4-bob. O‘qishni ko‘chirgan talabgorlarni o‘qitish

31. O‘qishni ko‘chirishda talabgor o‘quv rejalaridagi fanlari bo‘yicha farqlar bilan qabul qilinganda, u aniqlangan farqlar bo‘yicha fanlardan akademik qarzдор hisoblanadi. Bunda, akademik qarzdorlikni bartaraf etish Universitetning ichki tartib-qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

32. O‘qishni ko‘chirish jarayonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan talabgorlarning ta’lim jarayoni davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

O‘qishini ko‘chirgan talaba birinchi o‘quv yilida to‘liq to‘lov-kontrakt asosida ta’lim oladi, ikkinchi o‘quv yilidan boshlab belgilangan tartibda tabaqalashtirilgan davlat granti talabgori bo‘lish imkoniga ega hisoblanadi, bundan O‘zbekiston Respublikasi norezidenti hisoblangan talabgorlar mustasno.

O‘qishni ko‘chirish talablaridan muvaffaqiyatli o‘tgan, xalqaro darajadagi tegishli dasturlar (International Baccalaureate, Advanced Placement, International Advanced Levels) diplomi yoki sertifikatiga ega Prezident maktabi bitiruvchisi hisoblangan talabgorga davlat granti o‘quv yili boshida belgilangan tartibda qabul qilingan xalqaro darajadagi tegishli dasturlar (International Baccalaureate, Advanced Placement, International Advanced Levels) diplomi yoki sertifikatiga ega Prezident maktablari bitiruvchilariga taqdim etilgan tartibda taqdim etiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

33. Mazkur Nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar Universitet rektorining buyrug‘i asosida kiritiladi.

34. Mazkur Nizomni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

35. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

“Yangi O‘zbekiston” universitetiga
talabalar o‘qishini ko‘chirish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga

1-ILOVA

Talabalarning o‘qishini ko‘chirish

SXEMASI

Bosqichlar	Mas’ullar	Tadbirlar	Muddat
1-bosqich	Talaba	1. O‘qishni ko‘chirish yuzasidan belgilangan hujjatlar ilova qilingan holda ariza taqdim etish.	kuzgi semestr uchun – 15-iyuldan 30-iyul sanasiga qadar; qishgi semestr uchun – kuzgi semestr davrining oxirgi 15 kuni mobaynida
2-bosqich	Ishchi guruh	1. Talaba minimum talablarga javob berishini tekshirish. 2. O‘qishni ko‘chirishga talabgorlar ro‘yxatini shakllantirish.	ariza kelib tushganidan so‘ng 3 ish kuni mobaynida ariza taqdim etish yakunlanganidan so‘ng 1 ish kuni mobaynida
3-bosqich	Qabul komissiyasi	Talabalar bilan suhbat o‘tkazish.	o‘qishni ko‘chirishga nomzodlar ro‘yxati shakllantirilganidan so‘ng 10 ish kuni mobaynida
4-bosqich	Ishchi guruh	Talabalar reytingi shakllantirish hamda o‘qishni ko‘chirishga tavsiya etilgan talabalarni belgilash.	suhbatlar o‘tkazilganidan so‘ng 4 ish kuni mobaynida
5-bosqich	Ishchi guruh	O‘qishni ko‘chirishga tavsiya etilgan talablarga shartli oferta yuborish.	o‘qishni ko‘chirishga tavsiya etilgan talabalar ro‘yxati shakllantirilgandan so‘ng 1 ish kuni mobaynida

Bosqichlar	Mas'ullar	Tadbirlar	Muddat
6-bosqich	Talaba	Tegishli ta'lif yo'nalishi uchun belgilangan to'lov-kontrakt summasining 25 foizini to'lash.	shartli oferta yuborilganidan so'ng 10 ish kuni mobaynida
7-bosqich	Talaba	Tegishli hujjatlarning asl nusxasini taqdim etish.	Ishchi guruh so'roviga asosan, biroq yangi semestr boshlanishidan 5 ish kuni avvalgacha

“Yangi O‘zbekiston” universitetiga
talabalar o‘qishini ko‘chirish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga

2-ILOVA

“IELTS” sertifikati o‘rniga taqdim etilishi ko‘zda tutilgan hujjatlar

RO‘YXATI

T/r	IELTS sertifikatiga muqobil sertifikatlar	IELTS 5,5	IELTS 6,0	IELTS 6,5	IELTS 7,0	IELTS 7,5	IELTS 8,0*
1	TOEFL Ibt	46	60	79	94	102	110
2	English A at Higher or Standard Level in the International Baccalaureate Diploma	4	5	6	6	7	7
3	English B at Higher Level in the International Baccalaureate Diploma	4	5	6	7	7	7
4	English B at Standard Level in the International Baccalaureate Diploma	5	6	7	–	–	–
5	Cambridge C1 Advanced/C2 Proficiency/ B2 First	162	169	176	185	191	200
6	Pearson Edexcel International GCSE English Language	4	4	5	6	7	8
7	IGCSE English as a First Language	D	C	C	B	B	A
8	GCE A-Level/AS-Level/GCSE/ GCE O-Level English Language	D	C	C	B	B	A
9	IGCSE English as a Second Language	D	B	B	A	A	
10	Pearson test of English (PTE) – Academic	36	46	56	66	76	84

*- mazkur ko‘rsatkich hamda undan yuqori ballga ega talabgorlarga mutanosib ravishda eng yuqori ball taqdim etiladi.

Izoh: Hujjatlar qabuli davomida yuqorida qayd etilgan sertifikat hamda diplomlargina qabul qilinadi. Boshqa turdagি xalqaro sertifikat va dimplomlar qabul qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.